

Sana: _____

Sinf: 5 _____

Fan: Adabiyot

Mavzu: Ezopning “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallarini o‘qish va tahlil qilish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy – o‘quvchilarga Ezopning “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallari haqida ma’lumot berish

Tarbiyaviy – komil insonni tarbiyalash

Rivojlantiruvchi – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish

Kompetensiya – badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma’naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o‘ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish

Dars turi – savol-javob, bahs-munozara

Darsning jihozi – 5-sinf adabiyot darsligi, tarqatma materiallar

Dars bosqichlari jadvali:

Tashkiliy qism	5 daqiqa
Uy vazifasini tekshirish	10 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
Mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
O‘quvchilarni rag‘batlantirish	3 daqiqa
Uyga vazifa	2 daqiqa

DARSNING BORISHI

Tashkiliy qism – o‘quvchilar bilan salomlashib, navbatchi o‘quvchi orqali sinf davomatini aniqlayman.

Uy vazifasini tekshirish – Vazifada o‘quvchilardan Ezopning hayoti va ijodi so‘rab baholanadi.

Yangi mavzu bayoni: o‘quvchilarga yangi mavzuni tushuntirishdan oldin ularni diqqatini bitta nuqtaga jalb qilaman. Yangi mavzuni e’lon qilib, sinf taxtasiga yozaman. Ezopning “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallarini o‘qish va tahlil qilish.

Yuksak qoyadan shiddat bilan qo‘zg‘algan burgut suruvdagi qo‘zichoqni ildi-yu ketdi. Zag‘cha buni kuzatib turgandi, hasaddan ichi kuyib, o‘zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. Zag‘cha jon-jahdi bilan chirqirganicha borib qo‘chqorga tashlandi: panjalari qalin junga o‘ralashib qoldi-yu, uchishga ham, qochishga ham imkoni bo‘lmay qoldi. Uning jon xalfida pitirlayotganini ko‘rgan cho‘pon gap nimadaligini fahmladi-da, darhol tutib oldi: qanotlarini qirqib, o‘zini ermak uchun bolalariga

eldi. Bolalari chuvillashib: «Bu qanday qush?» — deya so'raganlarida, cho'pon aytdi: «Men-ku buning zag'chaligini bilaman-a, biroq uning o'zi o'zini burgut hisoblaydi-da?!» Alqissa, o'zingdan zo'rroqlar bilan bellashaman, deb chiranganing bilan hech ish chiqarolmaysan, kulgi bo'lganing qoladi, xolos. Har qanday inson hayotda o'z o'rnini bilishi lozim. Kerak-nokerak narsalarga o'zini uraverish yaxshilikka olib kelmaydi. Agar zag'cha burgutdan bir necha barobar kichik ekanini, har qancha chiranganda ham burgut shiddatiga ega bo'lolmasligini fikr qilganida, o'zini abgor qilib, kulgili holatga tushmas edi. Ana shunday toifa odamlarga nisbatan donolar «Ko'rpangga qarab oyoq uzatgin» deya tanbeh beradilar. Darhaqiqat, yoshi ulug' yoki martabasi baland kishilar oldida maqtanchoqlik qilish, o'z imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olmaslik, ularga noo'rin xatti-harakatlari bilan o'zini ko'rsatmoqchi bo'lish oxir-oqibat shu kimsani bebro' qiladi, e'tiborsiz narsadek chetga chiqib qolishiga sabab bo'ladi. Ko'rinadiki, Ezop masallari hayotiyligi bilan, odamlarning fazilat-u nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto'g'ri xatti-harakatlarini aniq ko'rsatib bera olgani, ma'naviy ibrati bilan hozir ham o'z ahamiyatini to'la saqlab kelmoqda. Bundan bir necha ming yillar avval yaratilgan bu majoziy hikoyatlar dunyodagi barcha tillarga tarjima qilinib, shu yo'lda ijod qiluvchi davomchilari yetishib chiqishiga omil bo'ldi. Fransuzlarda J. Lafonten, rus adabiyotida I. Krilov kabi masalchi adiblar Ezop masallarini qayta ishlab, ijodiy boyitib, o'z davri xususiyatlariga ko'ra to'ldirib, rivojlantirdilar. O'zlari ham ulardan ilhomlanib, yangi masallar yaratdilar. Masal — majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iboratdir. Bular ramziy-majoziy ma'noda qo'llanilib, insonlar fe'l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shuki, u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan Ezop masallari bunga yorqin misoldir. Agar Ezop birinchi masalchi hisoblansa, undan so'ng eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o'tgan grek masalchilari Fedr, Babriy torn ma'noda uning davomchilari hisoblanadi. Hatto Fedrning masalchilik rivojidadagi asosiy xizmati shunda ediki, u Ezop masallarini she'riy yo'l bilan lotin tiliga tarjima qiladi. Ana shu tarjimalarga suyanib va ilhomlanib **XVII** asrda Fransiyada Lafonten, **XVIII** asrda Germaniyada Lessing, Gellert va **XVIII-XIX** asrlarda Rossiyada I. A. Krilov masal janrida barakali ijod qildilar.

Mavzuni mustahkamlash – o'quvchilarga yangi mavzu tushuntirilgach, mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi.

1. «Kiyik va tokzor» masalida Ezop qanday insoniy fazilatlar haqida so'z yuritadi?
2. «Bo'ri bilan laylak» masalida Bo'ri qanday insonlarning majoziy obrazi?
3. Sabr-bardosh, qanoat degan tushunchalarning mazmunini izohlang («Eshak bilan baqalar» masali misolida).
4. «Kiyik va tokzor» masalida Ezop qanday insoniy fazilatlar haqida so'z yuritadi?
5. «Bo'ri bilan laylak» masalida Bo'ri qanday insonlarning majoziy obrazi?
6. Sabr-bardosh, qanoat degan tushunchalarning mazmunini izohlang («Eshak bilan baqalar» masali misolida).

Rag'batlantirish: Darsga faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

Uy ishi: o'quvchilarga Ezopning masallarini o'qib kelish vazifa qilib beriladi.

O'IBDO' imzosi: _____

5-6-7-8-9-10-sinflar uchun ona tili va adabiyot fanidan kompetensiya asosida tayyorlangan namunaviy dars ishlanmalar jamlanmasini yuklab olish uchun quyidagi telefon raqami bilan bog'laning...

Telegram orqali bog'laning:

+99894-618-00-87